

### **KOREYA YARIMOROLIDA MATBUOTNING PAYDO BO'LISHI VA ILK RIVOJLANISH DAVRI**

*Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 1-kurs tayanch doktoranti*

[abdusattorovafarangiza@gmail.com](mailto:abdusattorovafarangiza@gmail.com)

+998 90 6686626

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Koreya yarimorolida dastlabki bosma nashrlarning paydo bo'lishi va ilk gazetalarning davlat va aholi o'rtaсидаги munosabatlarni yoritishda xizmat qilganligi ko'rsatib o'tilgan. Chosonda Li sulolasi gazeta va jurnallarning paydo bo'lishini ma'qullagani va faqatgina davlat nashrlari emas, balki xususiy gazetalar ochilishiga ham qarshilik bildirmaganligi yozib o'tilgan. Umuman olganda, Koreyada paydo bo'lgan ilk matbuot hozirgi zamonaviy Janubiy Koreya Respublikasi ommaviy axborot vositalari roli va o'rnini hozirgi yuqori pog'onalarga olib chiqish uchun poydevor bo'lgan.

**Kalit so'zlar.** Koreya yarimoroli, matbuot, Li sulolasi, "Ochiq Eshiklar siyosati", Koreys gazetasi, bosma nashrlar, "Xansomsunbo", "Xansonjukbo".

#### **Kirish**

Hozirgi kunda Janubiy Koreya Respublikasi har bir sohaning yetakchisi sifatida dunyoning oldi qatorlarida turadi. Bilamizki, Janubiy Koreya IT taraqqiyoti va internet rivojlanganligi jihatidan ham 1-o'rinda turadi, ammo bu Janubiy Koreyada ommaviy axborot vositalari rivojlanishiga va 4-hokimiyat organi bo'lishiga to'sqinlik qilgani yo'q. Koreya yarimorolida matbuot tarixining boshlanishi Li sulolasi tomonidan 1876-yilda olib borgan "ochiq eshiklar siyosati" amalga oshirish bilan boshlandi. XIX asr oxirlarida ushbu sulola boshlab bergen bu siyosat zamonaviy koreys jurnalistikasiga asosi yaratildi. Shuningdek, hozirda ham matbuot sohasi rivojlanib, har bir davlat partiyasining o'z gazetasi mavjudligini alohida qayd etish lozim.

### **Asosiy qism.**

Koreya ommaviy axborot vositalarining qay darajada ekanligi haqida hali ham munozaralar mayjud va ularni shartli ravishda 3 yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. hukumatdan mustaqil bo'lishi kerak
2. hukumat qanchalik mumkin tahririyatga bosim o'tkazish
3. aralashish (yoki ommaviy axborot vositalaridan "hamkorlikni so'rash").

Har holda, Koreya ommaviy axborot vositalarining uzoq tarixini shunday tavsiflash mumkin: erkin va mustaqillikka erishish uchun mashaqqatli sa'y-harakatlar va shiddatli kurashlardan biri ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirildi. Bu haqiqatan ham nazorat ostidagi ommaviy axborot vositalaridan erkin ommaviy axborot vositalariga qadar uzoq va mashaqqatli yo'l edi.

Bugungi kunda koreys milliy matbuotining rivojlanish taraqqiyotini 4 davrga bo'lish mumkin:

- Birinchi davr: 1883-1910-yillar, dastlabki milliy gazetalarning paydo bo'lishi va rivoji;
- Ikkinci davr: 1910-1945-yillar, Yaponiya mustamlakasida davridagi ozodlik uchun kurash davri;
- Uchinchi davr: 1948-1987-yillar, Koreyaning 2 alohida davlatga bo'linishidan keyingi koreys matbuoti va Koreya Respublikasi ta'lim sohasi davri;
- To'rtinchi davr: 1987-yildan hozirgi kungacha, Ommaviy axborot vositalarining milliy zamonaviy shakllanish davri.

Birinchi Koreya gazetalari Choson sulolasining oxirlarida paydo bo'lgan, 1881-yil oktyabr-dekabr oylarida paaydo bo'lgan. Bu nashrning aniq sanasini topish juda qiyin, chunki, o'sha davr manbalari bir-biridan ancha farq qiladi. Ushbu gazetaning nomi Choson Sinbo deb nomlangan va Pusan shahrida nashr etilgan. Aytib o'tish joizki, ushbu gazetaning kim tomonidan nashr etilgani ham aniq emas, ba'zi manbalarda yaponlar tomonidan deyilsa, ba'zilarida koreyslar

tomonidan nashr etilgan deyiladi. Eng qiziqarlisi, ushbu nashr Xangil (koreys zamonaviy alifbosi)da yozilgan qismlari saqlangan. Asosan ushbu gazetada savdogarlar uchun ma'lumotlar bo'lib, unda aniq bir shahar yoki davlatning siyosiy va iqtisodiy holati keltirib o'tilgan.

Bir necha yildan so'ng, koreys rahbariyat a'zolaridan Kim Ok Kyun, Pak Yon Xyo, Kim Xon Chip kabilar Yaponiyaga qo'shni davlatlarining rivojlanishini tadqiq etishga yuboriladi va ulardan biri mashhur byurokrat, siyosatchi, milliylik tarafdori Pak Yon Xyo koreys jamiyatida gazetalar yetishmayotganligini e'tirof etadi. Shundan keyin oddiy xalqni savodli qilish, xalqni siyosiy bilimlar olishga xizmat qilish uchun Hansong Sunbo (한성순보) gazetasi nashr etilgan, Hansong Sunbo nomi Qadimgi Koreyaning poytaxtining atalishi edi. Ushbu birinchi zamonaviy va bir yil davomida nashr etilgan gazeta har 10 kunda, keyin har hafta chiqarilgan bo'lib, ichida Koreya tarixi haqida maqolalar ham berilgan. Ushbu gazeta 1883-yil 30-oktyabr (oy taqvimi bo'yicha) ishga tushirilgan va oyiga uch marta (1, 11, 21) bosingan. Bu gazeta asoschisi qiroq Kojon (고종) bo'lib, Pakmunkuk(박문국) da nashr etilgan bo'lib, bu joy rasmiy bosmaxona edi. U Xanja (hanja, xitoy) tilida yozilgan bo'lib, 24 sahifadan iborat va tepadan pastga qarab yozilgan. Bu gazeta juda qisqa muddatda chiqqan, bunga sabab, 1884-yil dekabr oyida Seulda bo'lgan 3 kunlik Kapsin nomli xalq qo'zgoloni natijasida butun tipografik asbob-uskunalarning yoqib yuborilganligi va buzib tashlanganligidir. Ushbu qo'zgolon natijasida Qirol Kojon Yaponiya elchisini Yaponiyaga qaytarib yuboradi, bu bilan biroz vaqt bo'lsa-da oddiy xalqning ijtimoiy huquqlarini, yanbanlar bilan aloqalarini keskinlashuvini oldini olishga harakat qiladi. Bir necha vaqtdan so'ng, hokimiyat tomonidan 1886-yil 25-yanvarda Xansonjubo (Xansonning haftalik gazetasi)ni nashr eta boshladi. Oradan 2 yil o'tgach, ushbu gazeta o'zini bankrot deb e'lon qildi va 1888-yil 14-iyulda oxirgi gazetasi chiqdi. Xansonsunbo gazetasi tiraji 3 ming nusxani tashkil etgan bo'lib, faqat xitoy iyerogliflaridan foydalilanigan. Bu gazeta o'quvchilari saroy amaldorlari va feodal xizmatchilari bo'lgan. Xansonjubo gazetasi esa xitoy

iyerogliflaridan ham xanchadan ham foydalanilgan bo'lib, 1-bo'lib ushbu gazetada reklama joylashtirilgan.

Shuningdek, Xansonsunbo gazetasi 36 nusxa(adadda)da nashr etilgan bolib, ushbu gazetada nashr etilgan maqolalar va ma'lumotlarni ikki kategoriyaga bo'lishimiz mumkin.

Birinchi kategoriya(내국 기사)- davlatning ichki hayit haqida ma'lumotlar berilgan. Bu kategoriya tarkibida 관보(kvanbo) rasmiy byulleten, 사보(sabo) xususiy byulleten, 시치탐보(shichitxambo) turli xil tovarlarning narxlari haqida ma'lumotlar bo'lgan.

2- kategoriya 각국 근사(kakkuk kinsa)- xorij xabarlari berilgan bo'lib, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlarning matbuotidan koreys tiliga tarjima qilingan maqolalar berib borilgan.

Maqolalarda asosan, davlatning ichki ishlariga oid rasmiy ma'lumotlarda berilgan va ular 77% ini tashkil etgan, xorijiy yangiliklarda eng ko'p o'qiladigan mavzu urushlar va qurolsozlik haqida bo'lgan. Aytib o'tish lozimki, Xansonsunbo, chin ma'noda xalqni ongini uyg'otish uchun ochilgan gazeta edi. Bu gazeta kuchsiz davlatlar hududida paydo bo'luvchi ozodlik harakatlarini yo'naltiruvchi kuch bo'lib xizmat qildi. Misol uchun, ushbu gazetaning 1883-yil 29-dekabrda nashr etilgan sonida: Hindiston hukumatining Angliya mustamlakasiga aylangani haqida yozilgan bo'lib, Angliyaning zulmining ortib borishi hind xalqining ozodlik harakatini to'xtata olmasliklari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Birinchi xususiy Gazeta “Dokripsinmun”(“Mustaqillik gazetasi”) deb nomlanib, 1-nashri 1896-yil 7-fevralda chiqqan. Bu nashrning asoschisi So Je Pil bo'lib, Amerikada yashagan koreys bo'lgan va Koreya respublikasini qo'llab-quvvatlash uchun u 4,400 ming von nashr ishlari, Gazeta chiqarish uchun sarmoya kiritgan. “Dokripsinmun” 4 qismda nashr etilgan: 3 qismi koreys tilida va oxirgisi ingliz tilida(“Independent”) nashr qilindan.

Bu gazeta haftada uch kun: seshanba, payshanba va shanba kunlari nashrdan chiqib, 1-qismida nashriyot maqolasi va reclama, 2-qismida mahalliy va xorijiy yangiliklar, 3-qismida mahsulotlar narxlari, Jemulpo portidagi dengiz kemalari ro'yxati mavjud bo'lган. Aytib o'tish lozimki, 1-sahifadagi nashriyot maqolasida albatta mustaqillik g'oyalari ilgari surilgan, vatanparvarlik g'oyalari va davlatni iqtisodiy rivojlantirishga oid masalalar berib borilgan.

1897-yildan ushbu gazeta 2 xil versiyada o'z gazetalarini chop eta boshladi: koreys va ingliz tilida. 1899-yil 4-dekabrigacha "Mustaqillik gazetasi" ni rahbariyati o'zgardi, 1898-yil may oyida So Je Pil AQShga qaytdi, va ushbu gazetaning bosh redaktori Yu Jin Xo bo'ldi, uning davrida ushbu Gazeta nusxasi 3 ming tirajda chop etila boshladi. Afsuski, ushbu Gazeta 1899-yilda yaxshi ish olib bormayotganligi bahona qilib yopildi. Aslini olganda bu gazetadagi Milliy ozodlik ideologiyasi bundan keyingi gazetalar taraqqiyoti uchun omil bo'lib xizmat qildi. Shu voqeadan keyin Koreyada gazetalarning nashr etishning "Oltin davri" boshlandi. Birinchi siyosiy jurnalistlar, davlat qurilishini tanqid qilgani, hukumatni rejimi haqida keskin bayonotlar qilgani uchun qamoqqa yuborilgan, bu siyost ancha paytgacha mavjud bo'lib, davlatga qarsi bo'lган barcha gazetalar hunumat tahdidiga uchragan. Bu davrda nashr qilingan barcha gazetalar koreys jamiyatining barcha qatlamlari o'qishi uchun, ochiq lik va mustaqillik g'oyalalarini yanada singdirish uchun faqat koreys tili(ya'ni xangil alifbosi)da nashr qilingan. Gazetalarning barchasi o'sha davrdagi siyosiy lagerlar: konservatorlar, yaponparast rejim tarafdorlari va antiyapon rejim vakillari, ultra radikallar va boshqa inqilobiy fikrdagi jamiyatlar tomonidan nashr qilingan. Mamlakatda hatto, ingliz tilida chet ellilar uchun maxsus gazetalar ham chop etilgan. Bularning barchasi har bir siyosiy guruhning mamlakat aholisi orasida ta'sir o'tkazishga, odamlarni o'z tomoniga tortishga, o'zining haqiqiy diktaturasini o'rnatishga va qaysidir ma'noda boshqa mamlakatlardan siyosiy yordam olish darjasini naqadar qattiq harakat qilganini yana bir bor ko'rsatadi.

Ammo 1910-yilda hokimiyatga kelgan Koreyaning yangi ma'muriyati Koreyadagi barcha rasmiy gazetalarini yopishga kirishdi, ularning asosiy g'oyasi

odamlarning yapon istilosiga qarshi qaratilgan inqilobiy g'oyalarga qarshi kurashishini cheklash edi. Mamlakatda faqatgina bitta gazeta qoldi. Bu Meil sinbo(“Har kunlik gazeta”) edi. Bu gazeta butunlay yaponparast General gubernatorlik tomonidan chiqarilgan.

Yaponiyaning mamlakatni bosib olishi davridagi eng birinchi va keng qamrovdag'i milliy koreys harakati hisoblangan Birinchi mart harakati yoki Samil harakatidan so'ng general- gubernatorlik biroz siyosatini yumshatishga kirishdi. Ushbu Harakatning idealistik asosi AQSh prezidenti Vudro Vilson tomonidan 1918-yil yanvarda e'lon qilingan O'n to'rt moddasi edi va unda zaif xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi mavjudligi sababli ushbu harakat kelib chiqqan edi. Bu harakat tashabbuskorlari Tokioda tahsil olayotgan koreyalik talaba bo'lib, ular Yapon hukumatidan Koreyaning to'liq mustaqilligini talab qilishga undadi. Keyinchalik, bu radikal g'oyalar bosib olingan Koreya yarimoroliga ham kirib keldi; bu g'oyalar asosida mamlakat fuqarolari o'rtasida tarqatuvchi yashirin mustaqillik qo'mitasi tuzildi. Hatto Yaponiya hukumatini ag'darish uchun yashirin rejalar ishlab chiqilgan. Ushbu qo'zg'olon, koreylarning katta sa'y-harakatlariga qaramay, xalqaro miqyosda oshkor etilmadi va hokimiyat tepasiga kelgan liberal general-gubernator Saito Makoto ham siyosatda, ham boshqaruvda liberal edi va amalda bir qancha to'sqinliklar bekor qilindi. Yaponiya hukumati tomonidan ilgari o'rnatilgan senzura siyosati koreys xalqiga ma'lum miqdorda bo'lsa ham matbuot erkinligini berildi. Xususiy bosma materiallarni koreys tilida nashr etishga ruxsat berildi, ularning yordami bilan ba'zi siyosiy guruhlar Yaponiya rejimining muxoliflarini juda muvaffaqiyatli to'plashdi. Bunday ezilgan sharoitda ham koreyslar o'z noroziliklarini bildirish va g'oyalarni mayda-chuyda bo'lsa-da tarqatishga muvaffaq bo'lishdi. Aynan shu vaqtida paydo bo'lgan hozirgi muxolifat gazetasi DongAn Ilbo Yaponiya istilosi davrida Koreyada bosmachilikning rivojlanishiga katta xizmat qildi.

Bundan tashqari, 1940-yillarda II jahon urushining boshlanishi Yaponiya mustamlakasidagi siyosatni o'zgartirdi. Koreyada Yaponiya siyosatining keskinlashuvi natijasida yangi konservator general-gubernator kelishi bilan,

barcha erkinliklar bekor qilindi va Koreya gazetalari yana yopildi. Meil Shinbo (kunlik gazeta) imperator tomonidan boshqariladigan yaponparast gazeta yana nashr etilgan yagona gazeta bo'lib qoldi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Janubiy Koreya jurnalistikasi faoliyatining birinchi bosqichi 1883-yildan 1910-yilgacha davom etdi. Ushbu maqolada Koreyaning zamonaviy ommaviy axborot vositalarining tug'ilishi arafasida Koreyadagi umumiy siyosiy vaziyatni va zarurat tug'dirgan omillarni ko'rib chiqishga harakat qildik. Milliy ommaviy axborot vositalarini shakllantirish, Choson davlatini "xalqni tarbiya qilish" uchun ochilgan dastlabki bosqichning asosiy gazetalari va bu davrda koreys jurnalistikasi rivojlanishining asosiy bosqichlari ko'rib chiqildi. Bu davrning eng muhim gazetalari: davlatga tegishli "Hansongsunbo" va "Hanseongjubo", xususiy "Dokripsinmun" kabi gazetalar o'rGANildi.

Bu davrda gazetalar axborot berish bilan birga vatanparvarlik va madaniy-ma'rifiy harakatlarda yetakchi rol o'ynadi. O'sha davrda Koreya matbuotining o'ziga xos jihatlari shakllangan edi: milliy manfaatlarni ilgari surish, murosa siyosatini tanqid qilish, chet el aralashuviga qarshilik ko'rsatishni ilgari surgan, 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylangan Koreya II Jahon urushi yakunigacha mustamlakadan ozod bo'lish uchun gazetalarda mustaqillik ideologiyasi kiritganlar.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ким Сеулки. Зарождение и начальный этап формирования национальных медиа в Корее. Вопросы теории и практики журналистики. 2022. Т. 11, № 1. С. 173-189
2. Чо Хюнен. Основные этапы развития системы печатных СМИ Республики Корея. Масс-медиа зарубежных стран. Выпуск 112
3. А.К. Воробьева. ВЛИЯНИЕ КОРЕЙСКИХ СМИ НА СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ. Казанский (Приволжский) федеральный университет, г. Казань, Россия. Сборник.2020

4. <http://100.naver.com/100.nhn?docid=186477>
5. [http://encykorea.aks.ar.kr/Contents/Index?contents\\_id=E0061736#.](http://encykorea.aks.ar.kr/Contents/Index?contents_id=E0061736#)